

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

application of knowledge in the digital economy.....	360
Z.F.Kasimova	
Beshik to'yi marosimi folklorining o'rganilishiga doir.....	366
M.Y.Mamadjonov, F.A.Bekmuxamedova	
“Mehmon” so'zining o'zbek va ingliz maqollarida ijobiy hamda salbiy ma'noda qo'llanilishi	369
S.A.Mahmudova	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-kreativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik masalalari.....	373
S.J.Saidmuradova, X.Xolmurodova	
Milliy xarakter va badiiy psixologizm.....	378
G.I.Yuldasheva	
Kompyuter modellarini o'quv jarayonlarida qo'llash tamoyillari.....	383
M.M.Кахарова, З.М.Дадахонова	
Цели и принципы контроля в образовательном процессе	389
A.R.Saydullayeva	
Gender yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurati va istiqbollari	393
T.Akhmedova	
The impact of games on the development of pre-school children.....	398
U.Sh.Abduraximova	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmuni.....	402
J.Q.Mirzajonov	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati va pedagogik imkoniyatlari.....	406



UO'K:801.8.1292

MILLIY XARAKTER VA BADIY PSIXOLOGIZM

НАЦИОНАЛЬНЫЙ ХАРАКТЕР И ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПСИХОЛОГИЗМ

NATIONAL CHARACTER AND ARTISTIC PSYCHOLOGISM

¹Saidmuradova Saxiba Jalmuradovna

¹Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi, f.f.f.d (PhD)

²Xolmurodova Xursanoy

²Termiz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya

Nazar Eshonqul ijodida milliylikning badiiy ifodasi hamda bu milliylikning psixologik tahlil imkoniyatlari bilan bog'liq fikr-mulohazalari maqolada yoritiladi. Milliy qahramonlarning sho'ro zamonida muttasil ta'qib ostida yurganligi muhim adabiy formula, teran majoziy psixologik mahorat asnosida ifoda etilganligi, bunday dadil izlanuvchan, millatparvar yozuvchilar ijodining muhim o'zagini belgilashi borasida tahlillar keltiriladi. Iste'dodli ijodkor - yozuvchi Nazar Eshonqulning ijod mahsullari markazidagi e'tiborni tortadigan eng dolzarb masala — milliy xarakter va uning, asosan sho'ro davrida, yovuzlik hukmron muhitida umri fojiona ravishda kechgan bandalar taqdiridan iborat bo'ladi. Shu boisdan, Nazar Eshonqul asarlari tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda milliylik, milliy obraz taqdiri asosiy e'tibor markazida turishi ham bejiz emas. Milliy qahramonlarning sho'ro zamonida muttasil ta'qib ostida yurganligi muhim adabiy formula, teran majoziy psixologik mahorat asnosida ifoda etilganligi, bunday dadil izlanuvchan, millatparvar yozuvchilar ijodining muhim o'zagini belgilaydi. Yozuvchining fikrlari nafaqat mahalliy adabiyot, balki, umumjahon adabiyoti oldida turgan dolzarb masalalar atrofida ham fikr yuritishi bilan o'z haqiqatlariga ega. Bu o'rinda texnogen taraqqiyotining, hatto ommaviy madaniyat, g'arbona muomala – munosabatning milliy ong va milliy xarakter rivojiga salbiy ta'siri yoritiladi.

Аннотация

В статье рассматриваются художественное выражение менталитета нации в творчестве Назара Эшанкула и возможности психологического анализа этой народности. Тот факт, что национальные герои в советское время постоянно подвергались гонениям, является важной литературной формулой, выраженной в глубоких метафорических психологических способностях, определяющих представлена важная суть работ таких смелых и ищущих националистических писателей. Наиболее актуальным вопросом, привлекающим внимание в центре творчества талантливого художника-писателя Назара Эшанкула, является национальный характер и судьба его рабов, трагически погибших в атмосфере зла, главным образом, в советское время. Поэтому недаром в работах, посвященных исследованию творчества Назара Эшанкула, национальность и судьба национального образа находятся в центре внимания. Тот факт, что национальные герои в советское время постоянно подвергались гонениям, выражен в важной литературной формуле, глубоком метафорическом психологическом мастерстве, определяющем важный стержень творчества столь смело ищущих, националистических писателей. Мысли писателя имеют свою правду, поскольку отражают не только местную литературу, но и актуальные проблемы, стоящие перед мировой литературой. В этом месте подчеркивается негативное влияние рукотворного развития, даже массовой культуры, западного подхода и отношения на развитие национального сознания и национального характера.

Abstract

The article covers the artistic expression of nationality in the work of Nazar Eshanqul and the psychological analysis possibilities of this nationality. The fact that national heroes were constantly persecuted during the Soviet era is an important literary formula, expressed in deep metaphorical psychological skills, which defines the important core of the work of such boldly searching, nationalist writers. analyzes are presented. The most urgent issue that attracts attention in the center of creative products of the talented artist-writer Nazar Eshanqul is the national character and the fate of its slaves, who tragically died in the atmosphere of evil, mainly during the Soviet era. Therefore, it is not for nothing that nationality and the fate of the national image are in the center of attention in the works dedicated to the research of Nazar Eshanqul's works. The fact that the national heroes were constantly persecuted during the Soviet era is expressed in an important literary formula, deep metaphorical psychological skill, which determines the important core of the creativity of such boldly seeking, nationalist writers. The writer's thoughts have their own truth as they reflect not only on local literature, but also on current issues facing world literature. In this place, the negative impact of man-made development, even popular culture, Western treatment and attitude on the development of national consciousness and national character is highlighted.

Kalit soʻzlar: milliy xarakter, psixologik mahorat, psixologik tahlil, milliylik jozibasi, modern metodi, milliy qadriyat, texnologiya taraqqiyot.

Ключевые слова: национальный характер, психологическое мастерство, психологический анализ, национальное обаяние, современный метод, национальная ценность, рукотворное развитие.

Key words: national character, psychological skill, psychological analysis, national charm, modern method, national value, man-made development.

KIRISH

Isteʼdodli ijodkor - yozuvchi Nazar Eshonqulning ijod mahsullari markazidagi eʼtiborni tortadigan eng dolzarb masala – milliy xarakter va uning, asosan shoʻro davrida, yovuzlik hukmron muhitida umri fojiona ravishda kechgan bandalar taqdiridan iborat boʻladi. Shu boisdan, Nazar Eshonqul asarlari tadqiqiga bagʻishlangan ishlarda milliylik, milliy obraz taqdiri asosiy eʼtibor markazida turishi ham bejiz emas.

“Nazar Eshonqulning “Istilo” asarida psixologik tasvir yetakchilik qiladi, – deb taʼkidlaydi Gulnoz Sattorova – Asar qahramonining nomi “U” tarzida uchinchi shaxsda ifoda etiladi. Xuddi shu tarzda nomlash, bir obraz timsolida istilo tufayli tubanlik sari ketayotgan butun bir millat hayotini koʻrsata olish imkonini bergan. Bu bilan yozuvchi tarixiy voqealarni timsoliy obrazlarda ifodalash kabi oʻziga xos yutuqqa erishganligini taʼkidlab oʻtish lozim”. [5, 7-8.]. Olima Nazar Eshonqulning mazkur hikoyasida milliy erksizlikni, millat fojiasini shaxs fojiasida deb uqtiradi. Milliy tanazzul bosqichma - bosqich, “Istilo” qahramoni (U) xarakteridagi oʻzgarishlarni badiiy psixologik tahlil qilish orqali ifodalab berilishi alohida eʼtibor bilan tadqiq qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fikrimizcha, G.Sattorova Nazar Eshonqul ijodiga xos milliylik va shoʻro tuzumi munosabatlari bilan bogʻliq jihatlarni ancha aniq, teranlik bilan taʼkidlagan va dissertatsiya ishida buni batafsil tahlil va tadqiq qila olgan. Toʻgʻri, istiqloq davrida jasorat bilan adabiy hayotda namoyon boʻlgan Nazar Eshonqulga tengdosh bir guruh ijodkorlar (X.Doʻstmuhammad, I.Sulton, U.Hamdam, G.Xotam, Sh.Boʻtayev kabi) faoliyatida ham milliylik masalasi bir-biriga hamnafas va mushtarak tarzda eʼtiborni tortadi. Garchi, bu navqiron izlanuvchan, isteʼdodli qalam sohiblarining qizgʻin izlanishlarida Gʻarb adabiyoti, modern metodi taʼsiri ancha sezilarli boʻlsa-da, milliylik jozibasi va milliylik haqiqati ustuvor mohiyatga ega.

G. Sattorovanning bu boradagi kuzatishlari ham shu haqiqat bilan bogʻliq: “X.Doʻstmuhammadning “Mirkomilboyning qazo boʻlgan namozi” hikoyasi esa sof realistik uslub bilan bitilgan. Yozuvchi bejiz sarlavha ustida “tarixdan hikoyalar” degan izohni keltirmagan. Hikoyalarda real tarixiy obrazlar, tarixiy hikoyalar, real tarixiy – milliy xarakterlar yaratilgan. Nazar Eshonqulning “Istilo” hikoyasida faqat ikki obraz “Gʻanim va qahramon” ishtirok etgan boʻlsa, X.Doʻstmuhammad asarida mustamlaka etilgan millat va mustamlakachilarning qator obrazlari mavjud”. [5, 8.].Olima shu yoʻl bilan milliy xarakterning koʻplab qirralari ochilganligini, har ikki asar qahramoni ham taʼqib ostida yurganligini uqtiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nazar Eshonqulning adabiyotda va oʻz ijodida milliylik, bu milliylikning psixologik tahlil imkoniyatlari bilan bogʻliq fikr-mulohazalari quyidagi tahlillarda namoyon boʻladi. Milliy qahramonlarning shoʻro zamonida muttasil taʼqib ostida yurganligi muhim adabiy formula, teran majoziy psixologik mahorat asnosida ifoda etilganligi, bunday dadil izlanuvchan, millatparvar yozuvchilar ijodining muhim oʻzagini belgilaydi. Bu kabi adabiy haqiqatlar, teran badiiy izlanishlar boisidan, shu kabi jasoratli yozuvchilarimiz asarlari rivojlangan xorijiy davlatlarda ham nashr etilmoqda. Nazar Eshonqul koreyalik professor In Gyong Oh bilan bugungi adabiyotning dolzarb masalalari borasida qilgan suhbatida asosan adabiyotning milliyligi haqida qizgʻin fikrlaydi:

“Bosh maqsadim – oʻzbek millati ruhi va qalbining adabiy manzaralarini koʻrsatish. Bugungi oʻzbek (jumladan, koreys ham) bir tomondan bugunning eng ilgʻor vakili sifatida, xuddi Gʻarb kishisi kabi taraqqiyotning eng oldingi markazida sivilizatsiyaning soʻnggi yutuqlaridan bahramand boʻlyapti va uni yaratayotganlar safida turibdi. Ikkinchi tomondan esa, Gʻarb kishisidan farqli oʻlaroq, u ham oʻzining azaliy anʼana va qadriyatlaridan toʻla uzilgani ham yoʻq”. [1, 12.]. Nazarimda, texnik taraqqiyot milliy qadriyatlarining yashab qolishini shubhaga qoʻyadi va unga betinim tajovuz ham qilib turadi.

Ana shu tajovuz insonni o'z qalbidan uzoqlashtira boradi, uni insoniy fazilatlar va tuyg'ulardan ko'ra o'zi xizmat qilgan g'oya yoki tizimga burch va mas'uliyat hissi ko'proq bog'laydi. Bu xil burch va mas'uliyat kishidagi qadriyatlarga ehtiyoj qoldirmaydi, uni yaroqsiz holga keltiradi; texnogen ahamiyat munosabatlari bilan qadriyatga aylangan munosabatlar to'qnash keladi. Hozirdan bu to'qnashuvning alomatlarini ko'rinayapti; oqibatda insonning tabiiy holati, ya'ni qalbi bilan taraqqiyot o'rtasida ixtilof kelib chiqyapti; bu ixtilof allaqachon boshlangan.

G'arb bu ixtilofni terminatorlar, surrigatorlar timsolida ta'riflab yotibdi; nima bo'lgan taqdirda ham kelajak adabiyoti insonning qalbini, insonning qiyofasini sof saqlab qolishi uchun kurashga quriladi. Taraqqiyotning inson qalbi va millat ruhi prizmasidan o'tib, uning o'zligiga daxl qilmay singishi va insonparvarlikni inkor qilmay, bashariyatni olg'a boshlashi kerak; shu paytgacha o'tgan gumanistik g'oyalar, gumanistik adabiyot shuni ta'kidlaydi; ham o'zbek, ham koreys gumanizmi shuni ta'kidlaydi. Sharq hikmati insonning qalbini saqlab qolishga undashi bilan gumanistik hikmatdir. Insonning qalbini saqlab qolish bugungi adabiyotning bosh vazifasi va burchidir; ana shunda bugun G'arb kishisini yolg'izlik va xudosizlikka mahkum qilayotgan ma'naviy fojialar yuz bermaydi.

Yozuvchining fikrlari nafaqat mahalliy adabiyot, balki, umumjahon adabiyoti oldida turgan dolzarb masalalar atrofida ham fikr yuritishi bilan o'z haqiqatlariga ega. Bu o'rinda texnogen taraqqiyotning, hatto ommaviy madaniyat, g'arbona muomala – munosabatning milliy ong va milliy xarakter rivojiga salbiy ta'siri haqidagi fikrlarining tasdig'i uchun ayrim misollarga murojaat qilib o'tish mumkin.

“Shamolni tutib bo'lmaydi” hikoyasida jabrdiyda Bayna momo obrazi bilan yondosh holda asar syujet strukturasi o'rin olgan, xalq og'zaki ijodi namunalarini yozib olgani amaliyotga kelgan shaharlik talaba qizlar obrazi mavjud. Yozuvchining milliylikni ta'kidlash bilan bog'liq talqiniga ko'ra, Meli o'qituvchining “qishloqdagi ko'pni ko'rgan, ko'pni bilgan ayol” - degan bir og'iz gapi bilan Bayna momonikiga kelib o'rtnashib olishgan qizlar, aftidan, hali - beri ketmoqchi emasga o'xshaydi. Qizlar bilan Bayna momo ochilib gaplashmaydi.

Nega Bayna momo shaqildoq qizlar bilan ochilib gaplashmaydi, hatto, ularga ro'yxush ham bermaydi? Momo qizlarning “qishloq irimlarini nazarga ham ilmagan nopisandliklarini”, ularning “ko'ylaklarini”, “momoga g'alati ko'ringan shimlarini shundoq hammaga ko'z - ko'z bo'ladigan joyga bemalol osib qo'ygan”liklarini ko'ngliga – milliy an'anaviy qadriyat dunyosiga sig'dira olmaydi. Kitobxon bu manzaralarda yozuvchining Yevropaga taqlid ko'rinishlarini yozg'irmoqni, ayblamoqni niyat qilgan emas, balki, bugungi hayot tarzini ruhiy — psixologik aniqlik bilan tasvirlaganligini tushunib yetadi. Qizlarning ommaviy madaniyat ruhiga monandlikdagi xatti - harakatlariga munosabatini adib kitobxon e'tiboriga havola qilmoqda.

Adib zamonaviy talaba qizlarning sho'x-shodon, erka-tantiq qiliqlarini tasvirlash bilan g'arbona ma'naviyatga o'z munosabatini ifodalash barobarida, buning sotqin o'limi maromidagi holatini talqin etgan: “Talaba qizlarning ochiq- sochiqligi va lorsillagan tanalarini ko'z - ko'z qilish uchun kiyib olgan tor shimlari va ko'ylaklari, kalta sochlari va g'alati oppoq paypoqlari ham tabiatan tekin tomoshani yaxshi ko'radigan tersotaliklarning e'tiborini tortolmaydi; ularning shahar atiri ufurib turgan noz va tamannolari sirli tarzda o'ldirilgan otboqarning azasi soyasida ko'zga tashlanmay ham qoladi.

Go'zal va navqiron qizlarning paydo bo'lishi umri rutubatda o'tgan Bayna momoning ko'rimsiz va g'amnok xonadoniga fayz va ko'rk bag'ishlagandek bo'lganligi; o'z navbatida esa, bu nafosat sohibalari tufayli uylarning tanazzuli yanada bilinib qolganligi ham psixologik jihatdan ancha aniqligi bilan e'tiborni tortadi. Shaklan sharqona milliy qadriyat udumlariga nomuvofiq bo'lgan bu qizlarning lorsillagan tanalari, tor shimlari, kalta sochlari, g'alati oppoq paypoqlari, shahar atiri ufurib turgan tamannolari qotil va sotqin Zamon otboqarning sirli o'limi va azasi jarayonida Tersota qishlog'ining odmi va sodda aholisining diqqatini aytarli darajada o'ziga tortmagan bo'lsa ham kitobxonlar uchun, milliy qadriyatlarini aziz bilgan insonlar uchun g'alati va xunuk ko'rinishi tabiiydir. Yozuvchining muhim maqsad – muddaosi shuni taqozo etadi. Nazar Eshonqul o'zi milliy – ma'naviy qadriyatlarimiz namunasi, o'tashin himoyachisi sifatida, yanada muhimi, yoshlarga ta'na – dashnom berishdan saqlangan komil adib sifatida hayotning bugungi oqshomini, yoshlar qiyofasini real chizib bergan.

Nazar Eshonqul qissalaridan biri “Momoqo‘shiq” deb nomlangan. Asar nomlanishiga ham muhim va jiddiy g‘oyaviy – badiiy ma‘no bag‘ishlanadi. Bunday nomlanishlar majoziy, ramziy, ma‘naviy, axloqiy yoki siyosiy-ijtimoiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Boshqa bir jihatdan esa, shunchaki poetik ottenka yo bo‘lmasa, davr, sana, urf — odat mazmuni tashiydigan maqsad bilan bog‘liq bo‘lishi ham kuzatiladi. Masalan, “O‘tgan kunlar” davr – sana, “Mehrobdan chayon” va “Obid ketmon” sof majoziy– poetik yukka ega; “Navoiy”, “Buyuk Pyotr” , “Avazxon”, “Mavlono Muqimiy” romanlari taniqli kishilarning samimiy ifodasi bo‘lsa, “Diyonat”, “Adolat manzili”, “Telba”, “Qizil va qora”, “Qiyomat” kabi romanlarda esa, ma‘naviy va falsafiy, majoziy ramziylik maqsadi mujassam.

Nazar Eshonqulning “Momoqo‘shiq”, “Tun panjaralari”, “Qora kitob” singari qissalari, “Maymun yetaklagan odam”, “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Tobut”, “Zulmat saltanatiga sayohat”, Xaroba shahar surati, “Qo‘l” singari bir qator hikoyalari nomi ham o‘z mazmun – mohiyatiga ko‘ra majoziy – psixologik xarakterga ega. Shu bilan birga, bunday xarakterdagi asarlarning teranligi va bezavolligi ularda milliy konsepsiya, mahalliy kolorit poetikasi yetakchilik qiladi. Nazar Eshonqul qissalari yoki hikoyalari garchand modernistik adabiyot unsurlariga yaqinroq bo‘lib, obrazlar harakat va faoliyatida, o‘y – xayollarida, qiynoq va fojialar girdobida qolgan taqdirilariga monandlikda namoyon bo‘lsa-da, bunday jarayonlar ham albatta o‘zining milliy optimistik ruhiga ega bo‘lgan ramziy-poetik yaratmalardir.

Adabiyotshunos olim Ilhom G‘aniyev yozadiki, “Dostoyevskiy asarlarida azob chekishga mahkum etilganlar galereyasi yaratilgan. Ularning shafqatsiz hayot tarzi, uqubatlari, qilmish – qidirmishlari bizning ko‘zimizni yanada kattaroq ochishga majbur etadi. Hamisha birovdan nimadir kutishga, muruvvat, shafqat, mehrga tashna qalblarimizni bir qadar riyozatga tayyor turishga chorlaydi”. [3, 100.].

Nazar Eshonqul badiiy obrazlariga oid mashaqqatli faoliyatdan, mahzun kechmishlaridan shunday ibrat va ta‘sir ruhini sezamiz. Yozuvchi asarlarida milliy jozibani, milliy qadriyatlarni hayotiy tasvirlar vositasida psixologik jihatdan jozibador qilib talqin qilishga maxsus e‘tibor beradi. Masalan, bu jihatdan milliy qo‘shiq, ayol hayo — ibosi va beg‘ubor go‘zalligi kabi jihatlar muhim psixologik – poetik vosita sanaladi. Nazar Eshonqulning “Momoqo‘shiq” nomli misoli nasriy nazm ruhida yozilgan ancha ravon va yengil, xushnud va mamnuniyat bilan mutolaa qilinadigan qissasida milliy g‘oyani, milliy qadriyatlarni g‘oyatda ixlos va mehr bilan ifodalab bergan. Bunda yozuvchi mahalliy ayollarning soddalik ortidagi go‘zalligini va milliy qo‘shiq ifodasi bilan bog‘liq ruhiy – psixologik usullardan unumli foydalanadi. Qo‘shiq san‘atning eng qadimiy turlaridan biri bo‘lib, xalq yaratgan qo‘shiqlarda xalqning o‘ziga xos orzu- umidlari, quvonchlari, qayg‘uli taqdirleri, hatto, motam marosimlari bilan bog‘liq hodisalari o‘z talqinini topgan. Nazar Eshonqul qissasidagi Muazzam kelinchakning sodda va beg‘ubor, go‘zal siymosi, uning g‘oyatda yoqimli qo‘shiqlari orqali o‘zbek ayoli qiyofasi, uning ma‘naviy – psixologik, go‘zallik dunyosining san‘atkorona talqini orqali teran milliy jozibasini ko‘rsata olgan. Bunda iqtidorli adib ichki psixologik holatlar, qalb dialektikasi manzaralari beg‘uborligini, dardkashlik, bezavollik fazilatlarini umumlashtirishga muvaffaq bo‘lgan. O‘lis xo‘jalikka paxta hashariga chiqqan madaniyat vazirligi xodimlari tegishli maskanga borib tushgach, san‘atkorlardan ayrimlari dala shiyponi atrof — tevaraklarini aylangani chiqadilar. Ular yaqin joydagi bir dehqonning ekinlari yonida tiklangan chayla oldidan chiqib qoladilar; daraxtzor tugab, ular qandaydir qamish chaylaning qarshisidan chiqib qolishadi, chayla oldida yog‘ochdan so‘ri qilingan, so‘rining bir chetiga o‘ntacha qovoq terib qo‘yilgandi; to‘rt hasharchi ham xuddi birov imo qilgandek birdan to‘xtab qoldi. Ular qo‘shiqning nazariy tomonlarini va ovozning qadrini yaxshi tushunardilar. Shu sababli qarshilaridagi qizga bir zum sehrlanganday, bir oz ajablanganday qarab turishardi. Hatto eng mashhur hofizlar ham bu qo‘shiqning yuqori pardasiga kelganda bir oz kuchanishardi; qiz esa dugonasiga shivirlyotganday qiynalmay, ovoz maromini o‘zgartirmay, pardadan – pardaga oshib o‘tardi”. [2, 273.].

XULOSA

Xulosa sifatida aytish lozimki, yozuvchi hayotning tabiiy maromidan kelib chiqib, manzarani realistik jozibasi bilan chuqur lirik – psixologik taxlitda tasvirlab, asar ta‘sir kuchini ta‘minlay olgan. Mazkur oqko‘ngil kelinchak ijrosidagi qo‘shiqning jonbaxsh ohanglari milliy qadriyatlar chashmasining tabiiy oqimidan bahramand bo‘lgan kabi huzur – halovat va ruhiy xotirjamlik ruhini bag‘ishlaydi. Adibning asl muddaosi ham texnogen progressiyasi avj olib rivojlanayotgan davrda ulug‘ ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan bebaho boylikni – milliy qadriyatlarni, milliy urf –

odatlarni unutmastik da'vatini qilayotganligi ma'lumdir. Darhaqiqat, qizning ovozi so'zlarni ham ohangga aylantirib yuborar, qiz qanotini ozod qoqib yurgan qushchaday, berilib qo'shiq aytardi – qo'shiqdan hatto qizchani duk – duk urayotgan yuragini ham eshitish mumkin edi. "Uning tovushidagi erkinlikka Shamsi Saloh birdan majoz topa oldi: tog' kiyigi cho'qqidan cho'qqiga ana shunday sakrab yuradi, deb o'yladi u. Qiz ularni ko'rmas, qo'shig'ining avjini o'zgartirmay, bir paytning o'zida tez-tez so'ta sitardi. Uning atrofida jo'xori doni uyulib ketgan, qizdan ikki qadam narida ikki – uch haftalik buzoq o'ynab yurardi, uning kechki quyoshda yaltirab ketayotgan junidan va kichkina, chiroyli ko'zlarida ham qizning qo'shig'i jilvalanayotganga o'xshardi. [2, 273.].

Kelinchak odmi soddalik bilan ijro etayotgan sehri qo'shig'ining o'ta diltortarligi, tog' kiyigining sho'x sakrashlari, ikki - uch haftalik buzoqchani beg'ubor harakatlari parallelligida qo'shiq ohang, nafas va go'zallikning psixologik jozibador jarayonlari sifatli tarzda talqin qilingan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Eshonqul H. Adabiyot inson qalbi uchun kurashdir. – Toshkent: Kitob dunyosi, 2013. – 15 b.
2. Eshonqul H. Momoqo'shiq. Qissa. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijod uyi, 2019. – 278 b.
3. G'aniyev I. Dostoyevskiy tushunish yoki mangu bedorlik siri. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2006, – 100 b.
4. Saidmuradova Sakhiba Jalmurodovna, & Kholmurodova Khursandoy. The Issue of Artistic Psychologism in Modern Uzbek Prose. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education 2024. (2993-2769), 2(1), – 301-304 pp.
5. Sattorova G. Yu. 90-yillar o'zbek hikoyachiligida milliy xarakter muammosi. Filologiya fanlari nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati, – Toshkent: 2002. – 7-8 betlar.
6. Sayfullayev Najibullo, Mirzayeva Avazxol. Explanation of arabic words in "Nasayim ul-muhabbat" by Alisher Navoi. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 2024.11(02).